

"JIZZAX" ERKIN IQTISODIY ZONASI - YIRIK SANOAT MARKAZI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7568081>




ELSEVIER



Norbo'tayeva Maxbuba Saitqul qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti magistranti
e-mail: makhbubahanum@gmail.com



Abstract: Jizzax erkin iqtisodiy zonasining yaratilishidan asosiy maqsad, Jizzax shahri va Sirdaryo tumanlarida ishlab chiqarish va resurs istiqbollardan to'liq va samarali foydalanish, bu hududlarda zamonaviy yuqori texnologiyali sanoat mahsulotlari, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishda horijiy va vatanimiz sarmoyadorlarining investitsiyalarini jalb qilish uchun qulay sharoit yaratish, ushbu ish asosida yangi bo'sh ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadini ma'lum ma'noda oshirishdan iboratdir.

Keywords: erkin iqtisodiy zona, qo'shma korxonalar, sarmoya, milliy iqtisodiyot, investor.

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Received: 22-01-2023

Accepted: 22-01-2023

Published: 22-01-2023

"JIZZAKH" FREE ECONOMIC ZONE IS A LARGE INDUSTRIAL CENTER



Abstract: The main goal of the creation of the Jizzakh free economic zone is to fully and effectively use the prospects of production and resources in the city of Jizzakh and Syrdaryo districts, to create favorable conditions for attracting investments of foreign and domestic investors in the production of modern high-tech industrial products and competitive products in these areas. is to create new job vacancies and to increase the income of the population in a certain sense.

Keywords: free economic zone, joint venture, investment, national economy, investor..

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Received: 22-01-2023

Accepted: 22-01-2023

Published: 22-01-2023

Erkin iqtisodiy zona – mintaqani jadal iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, yuqori texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo'lgan maxsus ajratilgan hududdir. Erkin iqtisodiy zonalar – davlatlararo kelishuvlarga yoki maxsus qonunlarga muvofiq, xo'jalik va tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun imtiyozli soliq, moliya, huquqiy sharoitlar joriy qilinadigan muayyan hududlardir. Xorijiy va mahalliy tadbirkorlarni jalb etish maqsadlarida tashkil etiladi va ularda zarur ishlab chiqarish va ish yuritish infratuzilmasi barpo etiladi. Erkin iqtisodiy zonalar ko'p hollarda davlatlararo tutash hududlarda (bir necha davlatlarning chegaralari tutashgan hudud), xalqaro aeroportlar, port shaharlarda yoki transport yo'llari tutashgan hududlarda tashkil etiladi. Erkin iqtisodiy zonalarda alohida xalqaro huquqiy status joriy etiladi. Lekin u qayerda joylashishidan qat'i nazar, shu mamlakatning ajralmas bo'lagi hisoblanadi, barcha amaliyotlar (yer ajratish, firma

va kompaniyalarni tashkil etish, chegaradan yuklarni, mahsulotlarni olib kirish va olib chiqish, boj to'lovlari, soliq to'lovlari bo'yicha imtiyozlar, qaysi valyuta yoki valyutalar to'lov vositasini o'tashi, hududni boshqarish tartibi va boshqalar) qabul qilingan qoidalar asosida tezkorlik bilan bajariladi. Erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishdan maqsad ko'plab yangi texnologiya, investitsiyalarni jalb qilib, rivojlangan iqtisodiy makon yaratish va shu yo'l bilan mamlakat iqtisodiyotini tezkorlik bilan rivojlantirishdir. Erkin iqtisodiy zonalarning har xil turlari mavjud: erkin omborxonalar, erkin bojxonalar zonalari, ilmiy-texnika zonalari. Ular AQShda texnoparklar, Yaponiyada texnopolislar deb ataladi. Shuningdek, maxsus iqtisodiy zonalar (asosan, eksportga ixtisoslashgan) ham mavjud. Erkin iqtisodiy zonalarga chet el kapitalini jalb qilish Xitoy siyosatida ancha keng qo'llanildi.

O'zbekistonda "Erkin iqtisodiy zonalar" g'oyasi milliy iqtisodiyot taraqqiyoti uchun ijobiy baholandi. Shu bois 1996-yilning 25-aprelda mamlakat parlamenti O'zbekiston Respublikasining "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida" qonunini qabul qildi. Bu qonun chet el investitsiyalari, savdo va sanoat sohalarining rivojlanishi, aholini ish bilan ta'minlashni yaxshilash uchun qulay sharoit yaratishga me'yoriy-huquqiy asos yaratdi. "Jizzax" erkin iqtisodiy zonasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 18-martdagi "Jizzax" maxsus industrial zonasini tashkil etish to'g'risida"gi PF-4516-sonli Farmoniga asosan tashkil etilgan. Xitoy shirkatlari moliyalashtirishni rejalashtirgan O'zbekistondagi uchinchi iqtisodiy zona Jizzax viloyati hududida tashkil qilinib, qo'shma loyiha uchun Xitoy Taraqqiyot banki tomonidan 50 million AQSH dollar mablag' ajratilgan. Qarorga ko'ra, 2013-yilning birinchi yarmida iqtisodiy zonani tashkil qilish bilan bog'liq barcha tashkiliy masalalar tugallangan. Jizzax erkin iqtisodiy zonasi tashkil etilgunga qadar O'zbekiston ikki iqtisodiy zonaga ega edi. Bular 2008-yilda tashkil qilingan Navoiy erkin sanoat-iqtisod zonasi va 2012-yil tuzilgan Toshkent viloyatidagi Angren maxsus ishlab chiqarish zonalaridir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 1-avgustdagi "Jizzax viloyatida tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va sanoat ishlab chiqarishini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 643-sonli qaror imzolandi. Ushbu hujjatga muvofiq, Jizzax erkin iqtisodiy zonasi Jizzax viloyatining to'rtta tumanida joylashgan, umumiy maydoni 182,1 gektar bo'lgan yer uchastkalari hisobiga kengaydi va umumiy yer maydoni 574,8 gektarni tashkil etdi. Bundan tashqari, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish ob'ektlari va davlat mulki ob'ektlari negizida yangi regional kichik sanoat zonalari: Baxmal tumanida (13 ga), G'allaorol tumanida (5,2 ga), Do'stlik tumanida (2 ga), Zomin tumanida (4 ga), Zarbdor tumanida (4,8 ga), Zafarobod tumanida (3 ga), Mirzacho'l tumanida (5,27 ga) va Yangiobod tumanida (1 ga) tashkil etildi.

"Jizzax" erkin iqtisodiy zonasi Jizzax viloyatining Jizzax shahrida joylashgan bo'lib, Sirdaryo viloyatining Sirdaryo tumanida ham o'z filialiga egadir. Jizzax

erkin iqtisodiy zonasining yaratilishidan asosiy maqsad, Jizzax shahri va Sirdaryo tumanlarida ishlab chiqarish va resurs istiqbollaridan to'liq va samarali foydalanish, bu hududlarda zamonaviy yuqori texnologiyali sanoat mahsulotlari, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishda xorijiy va vatanimiz sarmoyadorlarining investitsiyalarini jalb qilish uchun qulay sharoit yaratish, ushbu ish asosida yangi bo'sh ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadini ma'lum ma'noda oshirishdan iboratdir.

1 <https://bit.ly/3Hudu3f>

Jizzax erkin iqtisodiy zonasi 30 yil faoliyat yuritishga mo'ljallangan, balki bu muddat yana ham uzaytirilishi ehtimoldan holi emas. Ushbu zonaning faoliyati davomida bir qancha o'ziga xos soliq rejimi va bojxona imtiyozlari amalda bo'ladi. Zamonaviy texnologiya asosida barpo etilgan korxonalarda mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratildi. Doimiy ish o'rniga ega bo'lganlarning 60 foizi kasb-hunar kollejarini bitirgan yosh mutaxassislardir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 26-oktabrdagi "Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni mamlakatimizda yanada qulay investitsiya muhiti yaratish, imkoniyatlar va imtiyozlar ko'lamini kengaytirishda muhim dasturilamal bo'ldi. Ushbu hujjat asosida mamlakatimizdagi erkin iqtisodiy zonalar yagona nomda yuritilishi, imkoniyat va imtiyozlar borasida bir xillik yuzaga keltirilishi xorijiy hamda mahalliy investorlarni jalb etish, sanoatni rivojlantirish samaradorligini yanada oshirishda katta ahamiyat kasb etdi. 2016-yil dekabr oyida o'tkazilgan biznes-forum doirasida xitoylik va jizzaxlik ishbilarmonlar 10 ta loyiha bo'yicha o'zaro kelishuvlarga erishib, memorandumlar imzoladi. 2017-yil erkin iqtisodiy zona ma'muriy kengashi xorijiy va mahalliy investorlar bilan dastlabki qiymati 213,3 million dollar bo'lgan 25 ta loyihani amalga oshirish ustida ish olib borishdi. 2017-yilning ikkinchi choragida yiliga 24 million kvadrat metr oyna ishlab chiqarish quvvatiga ega "Mingyuan Si Lu Industry" xorijiy korxonasining birinchi navbati ishga tushirildi. Xitoylik sarmoyadorlarning 109,7 million dollarlik investitsiyasi hisobidan barpo etilgan ushbu korxonaga to'liq ishga tushirilishi bilan 391 yangi ish o'rni yaratildi. Bundan tashqari umumiy qiymati 203,9 million dollarga teng bo'lgan yana 7 ta yangi loyiha amalga oshirdi. 2015-yilda ishga tushirilgan "Roison Home White Goods" O'zbekiston - Buyuk Britaniya qo'shma korxonasi "Jizzax" erkin iqtisodiy zonasidagi yirik ishlab chiqaruvchilardan biriga aylandi. Korxonada 6 xil muzlatkich, 40 dan ortiq turdagi gaz va elektr plitalari, 7 xil kondisioner, 2 xil kir yuvish mashinasi, 3 xil elektr va mini-pechlar hamda 12 xildagi televizor tayyorlanmoqda. Korxonaga 2016-yili 87 milliard 433 million so'mlik elektrotexnika buyumlari ishlab chiqargan bo'lsa, 2017-yilning o'tgan davrida bu ko'rsatkich qariyb ikki barobar oshdi. 2017-yilga qadar 206 ming dollarlik mahsulot eksport

qilingan. Mahsulotlar asosan Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston va Afg'onistonga sotilmoqda. Mahalliy lashtirish darajasini 30 foizdan 60 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Mahsulotlar korpusi, plastmassa qismlari va tasmasi ishlab chiqarildi. Shuningdek, qadoqlov mahsulotlarini ham shu yerning o'zida tayyorlash boshlandi. "Jizzax" erkin iqtisodiy zonasidagi elektr jihozlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yana bir korxonalar - "BEEK elektro" mas'uliyati cheklangan jamiyati ham o'z ish faoliyatini boshladi. Ushbu korxonada yiliga 500 ming elektr hisoblagich, 3 ming me'yorlagich (stabilizator), 50 ming ventilyator, 2 million svetodiod lampalar ishlab chiqarildi. Bu maqsad uchun 3 million 200 ming dollar miqdorida investisiya o'zlashtirildi. Bu albatta ushbu hududda amalga oshirilayotgan loyihalardan bir nechtasi xalos.

Bugungi kunda "Jizzax" erkin iqtisodiy zonasi hududida moddiy-xomashyo resurslarini qayta ishlash, maxsus industrial zona korxonalarini o'rtasida kooperatsiya aloqalarini o'rnatish va respublika miqyosida sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish va mahalliy xomashyo va materiallar negizida yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.

Hozirgi kunda hududda avtomobillar va yuk mashinalari uchun tormoz kolodkalari, televizor, konditsioner, muzlatkich, kir yuvish mashinasi, mikroto'lqinli pech, svetodiodli lampalar, polipropilen iplar, video va IP telefonlar, telekommunikatsiya uskunalari, internet tezligini oshiruvchi butlovchi qismlar kabi turli sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Bu mahsulotlarning aksariyati nafaqat Jizzax va Sirdaryo viloyatlari, balki mamlakatimizdagi boshqa bozorlar uchun ham yangilikdir. Erkin iqtisodiy zonada soliq, bojxona va boshqa to'lovlarda belgilangan imtiyozlar bilan birga, ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan muhandislik infratuzilma inshootlari barpo etilgani ham sarmoyadorlarni o'ziga jalb etmoqda.

Hozirda Jizzax erkin iqtisodiy zonasi yer maydoni 574,8 ga, mavjud bino va inshootlar 340 520 m², Investitsiya hajmi 597,9 mln AQSH dollari, horijiy investitsiya hajmi 206,9 mln. AQSH dollari, loyihalar soni 42 ta, ishchilar soni 7679 ta, 2015-yilda "Jizzax" erkin iqtisodiy zona ishtirokchi-korxonalarini soni 8 tani tashkil qilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2022-yilga kelib 35 taga yetgan. O'tgan 2015-2021 yillar mobaynida "Jizzax" erkin iqtisodiy zonasi korxonalarini tomonidan jami 4 426,2 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, 79,4 mln. dollarlik mahsulot eksport qilingan. Qo'shma korxonalar doirasida har xil turdagi maishiy elektronika mahsuloti, elektr o'rnatish jihozlari, ishlatilgan akkumulyatordan qo'rg'oshin va nikel olish va uni qayta ishlash, har xil o'lchamdagi trubalar, trikotaj mahsulotlari, gilam mahsulotlari, oyna mahsulotlari, issiqlik o'tkazmaydigan materiallari, metiz va metal profil mahsulotlari, keng assortimentdagi yuqori sifatli va eksportbop tikuv mahsulotlari, zamonaviy tekstil majmuasini barpo etish, ultramarin pigmenti,

optik tolali kabel va boshqa kabel mahsulotlari (1-2 bosqichlar), bazalt sendvich panellari, bug'doyni qayta ishlash va un mahsulotlari sexini tashkil etish, granulalangan omuxta yem, yengil avtomobillar, qimmatli qog'oz uchun sellyuloza, quritilgan meva va sabzavotlarni ishlab chiqarish va ularni saqlash uchun sovutgich kompleksini tashkil etish kabi loyihalar amalga oshirilgan. Shu o'rinda kelgusida yana 14 ta yangi loyiha ishga tushirilishi ko'zda tutilmoqda. Ularni amalga oshirish uchun mahalliy va horijiy investitsiyalar jalb etilib, 3263 ta yangi ish o'rinlari ochish rejalashtirilgan. Xususan, keng assortimentdagi oyna(2-bosqich), ikkilamchi xom-ashyoni qayta ishlash va metal mahsulotlari, tabiiy teri mahsulotlarini ishlab chiqarish, tayyor teri

2 <https://bit.ly/3ky9Hsv>

mahsuloti ishlab chiqarish, keng turdagi konditer mahsulotlari, o'simlik yog'i, poyabzal ishlab chiqarish, "Volksvagen" yengil tijorat avtomobillari, krossoverlar, yengil yuk tashish avtomashinalar va mikroavtobuslar, dioksid kremniy kukuni, elektrod, bolgarka, mastika va temir bochkalar va yengil avtomobillar, keng assortimentda keramik santexnika mahsulotlari hamda kaustik soda ishlab chiqarish ko'zda tutilgan. Bu loyihalarning barchasi 2023-yil yakuniga qadar amalga oshirilishi rejalashtirilgan³. Kelgusida "Jizzax" erkin iqtisodiy zonasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari asosida quyidagi tarmoq korxonalarini joylashtirish mo'ljallangan: elektronika, mashinasozlik, qurilish materiallari, kimyo sanoati, yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati, farmatsevtika, tibbiyot va kosmetika mahsulotlari, teri va terini qayta ishlash va boshqa yo'nalishlar.

Suningdek, "Jizzax" erkin iqtisodiy zonasi "Orenburg" maxsus iqtisodiy zonasi bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydi. Tegishli kelishuvga erkin iqtisodiy zona rahbariyatining O'zbekiston delegatsiyasi bilan uchrashuvida erishildi. Erkin iqtisodiy zonaning ishga tushirilishi 2024-yilning boshiga mo'ljallangan. Hamkorlikning asosiy tarkibiy qismlaridan biri tajriba almashishdan iborat. Rossiya va O'zbekiston korxonalarini ko'magida hududlar o'rtasida ta'minot zanjirlarini qurish va qo'shma klaster loyihalarini amalga oshirish ham ko'zda tutilgan. Bugungi kunda O'zbekiston Orenburg viloyatining asosiy tashqi savdo hamkorlaridan biri hisoblanadi. Xususan, viloyatning 2022-yilning birinchi choragida tashqi savdo hajmining 11,3 foizi O'zbekiston hissasiga to'g'ri keladi. Qayd etilishicha, "Orenburg" erkin iqtisodiy zonasi ikkita uchastkada – Orenburg (380 ga) va Orskda (180 ga) joylashadi. Bu yerda zamonaviy sanoat infratuzilmasi yaratilib, kommunal va energetika tarmoqlari ishga tushiriladi hamda temir yo'l va avtomobil yo'nalishlari yotqiziladi. Shuningdek, jami 30 dan ortiq infratuzilma ob'ektlarini qurish va rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan. "Orenburg" erkin iqtisodiy zonasi hududida mulk solig'i, transport va yer solig'i bo'yicha nol foiz stavkasi bo'ladi. Bundan tashqari, import bojlari va bojxona qo'shimcha qiymat

solig'i ham nol foizni tashkil qiladi. Daromad solig'i 2 foizga kamaytiriladi. Shuningdek, Orenburgda O'zbekiston meva-sabzavot mahsulotlari uchun logistika markazi ochilishi, viloyatda g'alla va meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha qo'shma korxonalar ham tashkil etilishi rejalashtirilgan⁴.

3 <https://bit.ly/3ZLgXS5>

4 <https://bit.ly/3J2bEri>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://bit.ly/3Hudu3f>
2. <https://bit.ly/3ky9Hsv>
3. <https://bit.ly/3ZLgXS5>
4. <https://bit.ly/3J2bEri>
5. www.fezjizzakh.uz
6. www.lex.uz
7. www.jizzaxstat.uz